

2019 yil yanvar-fevral oyida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **967,8 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **106,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **511,4 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **105,6 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **52,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **62,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 967,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 106,1 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 93,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 110,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 909,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), tonna	3,1	3,7	83,8
Paxta linti, ming tonna	0,9	1,1	81,8
Aroq – ming litr 100 % spirt	55,2	176,0	31,4
Vino, ming litr	22,3	0,0	22,3 m
Un, ming tonna	20,2	18,6	108,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	2,8	3,0	93,3



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 511,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 5,6 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 52,8 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 35,3 % dan 2019 yilning yanvar-fevral oyida 35,7 % ga o'sgan.

Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da





2018 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 64,7 % dan 2019 yilning yanvar-fevral oyida 64,3 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatilmoqda.

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan
mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 210,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,6% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 21,7% ni tashkil etdi.


**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning
umumiy hajmidagi ulushi,%.**



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 40,3 % ulushini), Namangan (12,2 %), Uchqo'rg'on (10,4 %), To'raqo'rg'on (8,4 %), Uychi tumani (8,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,0 %), Chortoq (1,6 %), Kosonsoy (2,2 %) , Norin (2,7 %) va Chust (2,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 46,1 %), Namangan (10,9 %), Uchqo'rg'on (10,7 %) hamda To'raqo'rg'on (7,9 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

davomi

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida, Pop va Namangan tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (644,0 ming so'm), Namangan tumanida (681,0 ming so'm), Uchqo'rg'on (602,2 ming so'm) va To'raqo'rg'on (371,3 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (355,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 187,6 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 388,5 ming so'mni, Namangan tumanida 322,5 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 184,5 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 328,7 ming so'mni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollari xajmlari



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 62,0 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Namangan (83,1 %) va Uychi (65,1) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (14,8 %), Pop (17,4 %) va Chust (59,9 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 4673 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2158 tasi Namangan shahrida, 340 tasi Uychi, 339 tasi Chust, 317 tasi Namangan, 286 tasi Kosonsoy, 271 tasi To'raqo'rg'on, 186 tasi Uchqo'rg'on, 171 tasi Chortoq, 170 tasi Yangiqo'rg'on, 170 tasi Norin, 160 tasi Pop va 105 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2019 yil 1 mart holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 371 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 60,9 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uychi va Uchqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 mart holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80